

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SULAYMANOVA NILUFAR JABBAROVNA**

**OLAM LISONIY MANZARASIDA BAHO KATEGORIYASI**  
**VOQELANISHINING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**  
**(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtotreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)**  
**Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)**

**Sulaymanova Nilufar Jabbarovna**

Olam lisoniy manzarasida baho kategoriyasi voqelanishining diskursiv-pragmatik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari materialida) ..... 3

**Сулайманова Нилуфар Жаббаровна**

Дискурсивно-прагматические особенности реализации оценочной категории в языковой картине мира (на материале английского и узбекского языков) . 31

**Sulaymanova Nilufar Jabbarovna**

Discursive-pragmatic Features of the Implementation of the Evaluation Category in the Linguistic Picture of the World (on the material of the English and Uzbek languages)..... 61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 66

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SULAYMANOVA NILUFAR JABBAROVNA**

**OLAM LISONIY MANZARASIDA BAHO KATEGORIYASI**  
**VOQELANISHINING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**  
**(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.DSc/Fil536 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Safarov Shahriyor Safarovich**  
filologiya fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Axmedov Oybek Saparbayevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Sadullayeva Nilufar Azimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «20» aprel soat 09<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (426 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «05» aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil «05» aprel dagi 24-02 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**F.M.Xajiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida insonning nutqiy faoliyati, nutqiy harakatlar, shaxslararo kommunikatsiyada nutq madaniyati va olamning lisoniy manzarasini tasvirlash imkoniyatlarini qidirib topishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois ingliz va o'zbek tillarida olam lisoniy manzarasida baho kategoriyasi voqelanishining diskursiv-pragmatik xususiyatlariga, baho kategoriyasi pragmatik - diskursiv jihatlarini yoritishning nazariy asoslari, baho hodisasining fanlararo munosabati kabi antropotsentrik xususiyatli kategoriyalar tahlili hamda ushbu hodisalarning ontologik mohiyatini aniqlash, ularning tillararo bog'liqligini ta'minlovchi omillarni namoyon qilish muammosi, xulosa va natijalarning ishonchliligi ortishini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida olimlarning diqqat e'tibori turli lingvomadaniyat sohiblari nutqiy muloqati, unda til vositalaridan foydalanishdagi o'ziga xoslik, milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar, nutqiy tuzilmalarda olamning baholi lisoniy manzarasi shakllanish jihatlarini, baho kategoriyasining mantiqiy asoslari, uni funksional-semantik yondashuv asosida o'rganish, baho kategoriyasining matn modalligi bilan bog'liq jihatlarini tizimli ravishda tadqiq va tahlil qilish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, alohida tillarda olam lisoniy manzarasida baho kategoriyasi voqelanishining diskursiv-pragmatik xususiyatlarining tahlili, o'rganilayotgan hodisalarning ko'p jihatligi, antropotsentrik paradigma tinimsiz targ'ib qilinayotgan hozirgi paytda nutqiy tafakkur mahsuli bo'lgan baho hodisasining turli fanlarga xos bo'lgan metodologik tamoyillar nuqtayi-nazaridan o'rganilish, lisoniy materialning diskursiv misollar hisobidan boyitilishi, diskursiv-pragmatik tahlil paradigmasining ta'sirida oldindan mavjud bo'lgan lingvistik tavsif turlarining tamoman yangi ko'rinishi, o'z navbatida, tilshunoslikning tadqiqi chegarasini kengaytirishga va yangi xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonning poydevorini mustahkamlash strategik rejalarining amalga oshirilishi natijasi o'laroq, mamlakatimizda chet tillarning nazariy asoslarini va amaliy mohiyatini tadqiq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda chet tillarni o'rganishga e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bir paytda til tizimining barcha sathlari va ularga oid kategoriyalarni har taraflama o'rganish va tavsiflash bo'yicha qator tadqiqotlar bajarilmoqda. So'nggi yillarda "milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonolarini saqlash hamda targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish"ga<sup>1</sup> qaratilgan chora - tadbirlar doirasida ta'lim sohasida yuz berayotgan islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni nazariy va amaliy jihatdan puxta egallash, xalqlararo munosabatlarni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'z, 09.10.2019. № 209 (7439).

mustahkamlash, ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tuzilmalar diskursiv-pragmatik mazmuni shakllanish jarayoni xususiyatlarini yorituvchi tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda qator boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion go'yalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>2</sup>.Turli lingvomadaniyatlar vakillarining tafakkurida olam lisoniy manzarasining baholi ko'rinishda aks topishi natijasida hosil bo'ladigan til birliklarining kognitiv-semantik va pragmatik-diskursiv tadqiqi masalasiga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markaz va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Oxford University Language Center (Buyuk Britaniya); California University (AQSh); Voije Universiteit Amsterdam (Niderlandiya); Université de Sorbonne (Fransiya); Dublin City University (Irlandiya); New Bulgarian University (Bolgariya); Moskva davlat universiteti (Rossiya); Sankt-Peterburg universiteti (Rossiya); Shanghai International Studies University (Xitoy), shuningdek, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori universiteti, Farg'ona davlat universitetida olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida baho kategoriyasining funksional-semantik xususiyatlarini yoritishga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim ilmiy natijalarni shakllantirish uchun asos yaratgan (University of California, Croningen University); hozirgi kunda olamning lisoniy manzarasi shakllanishi va unda baho faoliyatining o'rin olishi butundan qismga qarab harakat qiluvchi yaxlit tuzilmaning lisoniy voqelanishi natijasi ekanligi aniqlangan (Lancaster University of Edinburgh, Barcelona University); hozirgi paytda olam manzarasining baholi tasvirini o'rganishga doir "Text Production. Science of Composition",

---

<sup>2</sup>Ma'lumotlar universitetlar veb-saytlaridan olingan: <https://www.ca.ac.uk/>, <https://ua.es/>, <https://www.ugr.es/>, <https://www.ub.edu/web/portal/es/>, <https://www.uniroja.es/>, <https://warwick.ac.uk/>, <https://aku.edu.tr/anasayfa/eng/index.htm>, <https://www.ku.dk/english/>, <https://linguanet.ru/en/>, <https://www.navoiy-uni.uz/en/site/index>.

“Pragmatics, Discourse”, “Discourse and Process” kabi internet sahifalar hamda elektron jurnallar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Baho kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi-nazardan aksiologik mazmunli lisoniy birliklar insonlar nutqiy tafakkur mahsuli, voqelikni til tizimi vositasida aks ettirish vositasi sifatida namoyon bo‘lishi dalillangan (Voronej davlat universiteti, Qozoq milliy universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti); aksiologik birliklarning diskurs sharoitida namoyon bo‘ladigan kommunikativ-pragmatik xususiyatlari o‘rganilib, ularning semantik-stilistik jihatlari aniqlashtirilgan (University of Copenhagen, Tambov davlat universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti).

Shunday qilib, baho kategoriyasining tadqiqi hozirgi zamon tilshunoslik fanining ustuvor yo‘nalislaridan biri sifatida qaralmoqda va ushbu hodisa qiyosiy-tipologik, diaxronik, sinxron planlarda o‘rganilmoqda, hamda uning funksional-semantik funksional-stilistik, pragmatik, lingvomadaniy xususiyatlarini belgilashga doir ko‘p-qirrali izlanishlar olib borilmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Olamning lisoniy manzarasi dunyo va o‘zbek tilshunosligida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘lgan. Ushbu hodisaning o‘rganilishi til vositalaridan muloqot faoliyatida foydalanish shart-sharoitlari va qonuniyatlarini yoritishga xizmat qiladi, zotan nutqiy tuzilmalarda olamning baholi lisoniy manzarasi shakllanish jihatlari aks topadi. Tilshunoslik sohasida lisoniy faoliyatning botiniy xususiyatlarini tahlil qilish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Dastavval nominativ birliklar yuzaga kelishida alohida shaxsning tasavvuri, uning ushbu birlikka berayotgan “shaxsiy mazmuni” muhim ekanligi<sup>3</sup> ta’kidlangan bo‘lsa, N.D.Arutyunova va N.Shermuhammedovalar baholash harakati biron narsaning qadr-qiyamati haqidagi fikr, ya’ni bilish obyektining shaxs ehtiyojlarini qondirish qobiliyati, istaklari, yo‘riqlariga mos kelishi tushunilishini ta’kidlaydi<sup>4</sup>. A.A.Ivin baho mezonlari va ularni nutqda faollashtiruvchi lisoniy tuzilmalar subyektiv xarakterga egaligini<sup>5</sup>, R.O‘.Madjidova insonning olamni bilish faoliyati natijasi bo‘lgan baholash tavsiflanayotgan obyektning xususiyatlarini namuna bilan solishtirish orqali amalga oshirilishini, M.Xaydeger “olamning manzarasi” voqelikning oddiy tasviri bo‘lmasdan, balki voqelikning mohiyatini, uning borlig‘ini aks ettirishini ko‘rsatib o‘tadi<sup>6</sup>. I.Dubov ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaraladigan mentalitet uchta asosiy qismdan iboratligi<sup>7</sup>, Johnson–Laird olam bilan bo‘lgan munosabatda shaxsning mentaliteti yetakchi rolni o‘tashini va uning manzarasi mental modellar ko‘lamida tasvirlanishini tavsiflaydi<sup>8</sup>. T.Harley baho psixolingvistikaning obyekt sifatida olamni idrok etish qobiliyati bilan bog‘liqligini<sup>9</sup> va R.Qo‘ng‘urov bahoning

<sup>3</sup>Кубрякова Е.С. Части речи с когнитивной точки зрения.- М.: ИЯ РАН, 1997. – 330 с.

<sup>4</sup>Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 339 с.; Shermuxamedova N. Gnoseologiya. – Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 320 s.

<sup>5</sup>Ивин А.А. Основания логики оценок. – М.: Изд-во МГУ, 1970.

<sup>6</sup>Маджидова Р.У. Aksiologicheskaya oppozitsiya antropocentricheskikh posloviy uzbeckogo i russkogo yazykov // Aktualnye problemy sovremennoy lingvistiky. – Т., 2021. – 111-116 с.;

Хайдеггер М. Время и событие. Статьи и выступления. – М.: Республика, 1993. – 447 с.

<sup>7</sup>Дубов И.Г. Феномен менталитета: психологический анализ // Вопросы психологии, 1993. – С. 20-29.

<sup>8</sup>Johnson – Laird P.N. Mental models: Towards a cognitive science of language, in inference and consciousness. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1983.

<sup>9</sup>Harley T. The Psychology of Language. From Data to Theory. – New York: Psychology Press, 2004. – 528 p.

ko'pincha subyektiv xarakterga ega bo'lishini ta'kidlaydi<sup>10</sup>. Martin, Whitelar oxirgi bosqichda voqea-hodisalar va predmetlar ularning inson hayotidagi ahamiyati, qiymatiga nisbatan baholanishini<sup>11</sup>; Crismore, Farnsworthlar metadiskurs hodisasini muallifning muloqot yuritilishiga qo'shgan hissasi sifatida ta'riflasalar<sup>12</sup>; Vande Kopple munosabatni ifodalovchi ko'rsatkichlar shaxslararo aloqaning shakllanishini ta'minlovchi vositaligini<sup>13</sup>, Hyland va Tse baho "diskursni tashkillashtiruvchi yoki muallifning mazmun va o'quvchiga munosabatini ifodalovchi lisoniy vosita" sifatida izohlanishini qayd etishadi<sup>14</sup>. Ye.N.Banina va Z.To'xtaxo'jayeva tadqiqotlarida bahoning emotsionallik, kinoyamuzlik, situativlik, intensivlik va kommunikativlik belgilariga egaligi, bunda bahoning ijobiydan salbiyga qarab harakatlanishi, kontekst bilan bog'liqligi, ma'no ifodasidagi darajalanishi isbotlangan<sup>15</sup>.

Rus tilshunosligida baho keng qamrovli hodisa sifatida turli yondashuvlar tatbiqida o'rganib kelingan, jumladan, A.A.Ivin<sup>16</sup>, S.F.Anisimov<sup>17</sup>, L.P.Dronova<sup>18</sup>, V.I.Karasik<sup>19</sup> kabilarning ishlarida baho kategoriyasining mantiqiy asoslari keng ko'lamda yoritilgan. Boshqa bir guruh olimlarning tadqiqotlari baholash harakatining bajarilishi va baho mazmuni shakllanish bosqichlarini tahlil qilishga bag'ishlangan<sup>20</sup>. Shuningdek, rus tilshunosligida baho kategoriyasini funksional-semantik yondashuv asosida o'rganuvchi alohida yo'nalish shakllanib ulgurgan<sup>21</sup>.

Keyingi paytlarda baho kategoriyasining turli mundarijaga ega matnlarda voqelanishini ta'minlovchi omillarni aniqlashga yo'naltirilgan aksiologik yondashuv keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilinmoqda, N.Panjiyeva baho

---

<sup>10</sup>Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – T.: Fan, 1980.

<sup>11</sup>Martin J., White P. The Language of Evaluation: Appraisal in English. – L.: Palgrave, 2005. – 301 p.

<sup>12</sup>Crismore A., Farnsworth R. Metadiscourse in popular and professional science // The Writing Scholar: Studies in Academic Discourse. – London: Sage, 1990: 118-136.

<sup>13</sup>Vande Kopple W. Some exploratory discourse on metadiscourse // College Composition and Communication, 1995, vol. 36. – P. 82-93.

<sup>14</sup>Hyland K. Tse P. Metadiscourse in academic witing: a reappraisal // Applied Linguistics, 2004. Vol. 25. P. 156-176.

<sup>15</sup>Банина Е.Н. Оценочный компонент значения в семантике метафоры. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2001. -17 с.; Тухтаходжаева З.Т. Выражение категорий квантификации и оценки в словообразовательной системе современного английского языка (на материале производных прилагательных). Автореф.дисс.... канд. филол. наук. – М.: 1982. – 26 с.

<sup>16</sup>Ивин А.А. Aksiologiya. – М.: Высшая школа, 2006. – 390 с.

<sup>17</sup>Анисимова С.Ф. Введение в аксиологию. – М.: Современные тетради, 2001. – 128 с.

<sup>18</sup>Дронова Л.П. Картина русского мира: аксиология в языке и тексте. – Томск: Изд-во Томского у-та, 2005. – 353 с.

<sup>19</sup>Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

<sup>20</sup>Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 339 с.; Болдырев Н.Н. Структура и принципы формирования оценочных категорий // С любовью к языку. – Москва – Воронеж, 2002. – С.103- 115.; Есенина О.А. Конструкции экспрессивной оценки в современном английском языке. Автореф.дисс... канд.филол.наук. – М.: 1991. -16 с.

<sup>21</sup>Вольф Е.М. Оценочное значение и соотношение признаков "хорошо / плохо" // Вопросы языкознания, 1986. -№ 5. – С. 98-106.; Маркелова Т.В. Функционально-семантическое поле оценки в русском языке // Вестник МГУ. Серия 9. Филология., 1994. № 4. – С. 12-19.; Слышкин Г.Г. Аксиология языковой личности и сфера активной лингвистики // Социальная власть языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 2001. – С. 53-64.; Мирошникова М.Г. Функционирование сложноподчиненных оценочно-изъяснительных предложений в речи. Автореф. дисс....канд. филол. наук. – СПб, 1994. – 24 с.

ma'nosini ifodalovchi leksik birliklarni ingliz va o'zbek tillari qiyosida tahlil qilgan<sup>22</sup>.

O'zbek tilshunosligida baho kategoriyasi tahliliga bag'ishlangan mufassal tadqiqotlardan biri G'.Qambarovning<sup>23</sup> "Baho munosabati va uning o'zbek tilida ifodalanishi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bo'ldi. Baho kategoriyasining matn modalligi bilan bog'liq jihatlari S.Boymirzayeva tomonidan o'rganilgan, ushbu kategoriyaning aksiologik faoliyat negizida turishi ta'kidlangan<sup>24</sup>.

Shuning bilan birgalikda, til tizimining murakkab hodisalaridan biri bo'lgan baho kategoriyasining tabiati, ushbu hodisaning mohiyatini ochib berishda uning turli jihatlari o'zaro munosabati tilshunoslikda to'liq tavsifini topib ulgurgani yo'q. Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek tillari misolida olam lisoniy manzarasida baho kategoriyasi voqelanishining diskursiv-pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tanlangan lisoniy hodisaning qiyosiy-chog'ishtirma aspektida o'rganilishi mavzu bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar ko'lamini yangi qarashlar bilan boyitadi.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Diskursni kognitiv, pragmatik va sotsiolingvistik o'rganish" **mavzusidagi ilmiy yo'nalish** doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek tillari olam lisoniy manzarasida baho kategoriyasi voqelanishining diskursiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash orqali ularning til va nutqdagi o'rnini, lisoniy, lingvomadaniy, lingvopragmatik, lingvokognitiv hamda kommunikologik tabiatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

baho kategoriyasining fanlararo jihatlarni yoritish hamda jahon tilshunosligida bu borada yaratilgan ilmiy ishlarga munosabat bildirish;

baholash lisoniy tafakkur harakati turlarini tahlil etish hamda ushbu hodisaning lisoniy tabiati, tuzilishi hamda yondosh hodisalariga munosabatini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillari misolida olam baholi manzarasining lingvomadaniy, kognitiv, pragmadiskursiv va aksiologik belgilarni ajratish;

baholash faoliyati namunalarining turli janrlardagi matnlarda faollashuvini o'rganish orqali ushbu namunalarining aksiologik mohiyatini aniqlash;

---

<sup>22</sup>Абдуллина Л.Р. Функционирование глагольных фразеологических единиц и прагмасемантика (на материале французского и татарского языков); Чернявская Е.А. Оценка и оценочность в языке и художественной речи (на материале поэтического, прозаического и эпистолярного наследия А.С. Пушкина). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Брянск, 2001. – 25 с.; Бурмистрова Т.А. Лингвокультурологический потенциал лексико-семантической оппозиции город/деревня. Лексикографический аспект. Автореферат на соискание ученой степени канд. Филол. Наук. Санкт – Петербург 2017.; Симонян Т.А. Семантика пространственных атрибутов в свете когнитивного подхода: Прилагательные с параметром высоты. диссертация ... кандидата филологических наук.;Синегубова К.В. Художественная аксиология Елены Гуровой. диссертация ... кандидата филологических наук. Рос. ун-т дружбы народов. - Кемерово, 2012. - 184 с.;Панжиева Н.Н. Когнитивный аспект оценочных номинаций лица в английском и узбекском языках. Автореф.дисс....канд. филол.наук. – Т.: 2004. – 22 с.

<sup>23</sup>Qambarov G'.S. Baho munosabati va uning o'zbek tilida ifodalanishi (shaxslararo munosabat asosida). Filol.fan. nomz. Diss... avtoreferati. – T.: 2008. – 26 b.

<sup>24</sup>Boymirzayeva S. Matn modalligi. – T.: Fan, 2010. – 151 b.

olam lisoniy manzarasi shakllanishida so'zlovchining voqelikka munosabati, uning amaliy maqsadi muhim rol o'tashini inobatga olgan holda turli ko'rinishdagi salbiy va ijobiy baho mazmuniga ega nutqiy aktlarni tasniflash usulini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida ingliz va o'zbek tillari gap va matnlari mazmuniy tarkibi shakllanishida ishtirok etadigan baho kategoriyasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o'zbek tillari olam lisoniy manzarasida baho kategoriyasi voqelanishining diskursiv-pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tavsifiy, statistik (so'rovnom natijalarini aniq hisoblash bilan bog'liq usul), qiyosiy-taqqoslash (turli ijtimoiy maqomdagi nutq subyektlarining nutqiy strategiyalaridagi farqlarni o'rganishda), muloqot matnidagi ma'lumotlar diskursiv-pragmatik hamda kognitiv-kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

olamning baholi lisoniy manzarasi insonning ongli faoliyati mahsuli ekanligini va uning shakllanishida voqelikni idrok etuvchi shaxsning histuyg'ulari, dunyoqarashi, ijtimoiy maqomi aks topishi kabi lisoniy-diskursiv holatlar inobatga olgan holda baho kategoriyasining, antropotsentrik paradigma doirasida namoyon bo'lishi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillari misolida baho kategoriyasi vositasida inson ongli faoliyati natijasini, subyektning voqelik obyektiga nisbatan ijobiy/salbiy munosabatini, narsa-hodisalar xususiyatining ijobiy yoki salbiy idrok etilishini, ontologik mohiyatini, ziddiyatli olam lisoniy manzarasini voqelantirishda lingvomadaniy, lingvokognitiv, pragmatik va diskursiv belgilarining ustivorligi dalillangan;

olam manzarasi baholi kategoriyalashtirish bilan bog'liq mantiqiy harakatlar asosan tavsifiy yoki antropotsentrik xarakterga ega bo'lishi, uning ma'lum milliy madaniyatga xos qadriyatlar tizimiga, jamoaviy va shaxsiy fikr hamda me'yorlarga asoslanishi hamda ma'lum bir milliy til zamirida voqelanishi isbotlangan;

chog'ishtirilayotgan lingvomadaniyatlarda olam manzarasi baholi tasvirining turli janr va ko'rinishdagi matnlarda voqelanishining qiyosiy tahlili jarayonida paremiologik, komik, satirik kabi matn namunalari aksiyologik mohiyati sezgiga oid, ratsional va emotsional turlar jihatdan o'xshash va variativ xarakterda ekanligi asoslangan;

nutqiy aktlarning diskurs tarkibida ijobiy yoki salbiy baho pragmatik mazmuniga ega bo'lishi va muloqot ishtirokchilari o'zaro munosabati simmetrik yoxud asimmetrik ko'rinishda kechishi bilan bog'liqligi maqtov, takalluf, maslahat, tavsiya, pand-nasihati, va'da, tahdid, tanbeh, ta'na qilish, kinoya kabi nutqiy harakatlar natijasi ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillari lisoniy birliklarining aksiologik imkoniyatlarini o'rganish maqsadi qo'yilgan ushbu tadqiqot natijasida turli til va madaniyat sohiblari dunyoqarashining baho qismidagi o'ziga xosliklar aniqlangan;

nutqiy tuzilmalar tarkibida namoyon bo'ladigan baho kategoriyasining tadqiq etish, pragmatik me'yor qoidalaridan amaliyotda foydalanish hamda ingliz tilini

o'rganuvchi talabalarga stilistika, pragmalingvistika, zamonaviy tilshunoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishning metodik ta'minoti yaratilgan;

olam manzarasining aksiologik voqelanishining chog'ishtirma tahlili orqali lisoniy tuzilmalarning kognitiv, diskursiv, pragmatik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari yoritilgan hamda ularning kategorial belgilari ajratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq shakllantirilishi, qo'llanilayotgan tadqiqot usullarining adekvatligi, ilmiy-nazariy manbalarning va tahlil qilib chiqilgan material hajmining nufuzliligi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, muammoning tavsifiy, statistik, qiyosiy-taqqoslash, diskursiv-pragmatik, kognitiv-kontekstual tahlil usullar asosida aniqlab berilgani, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy tilshunoslikning keng ko'lamda rivojlanib borayotgan antropotsentrik paradigmasi doirasida shakllangan g'oyalarni baho kategoriyasi tadqiqiga tatbiq qilish imkoniyatida namoyon bo'ladi, shuningdek, olingan natijalar pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik kabi fanlardan ilmiy tadqiqotlar yaratishda manba bo'lishi bilan bir qatorda, aksiologik tilshunoslik yo'nalishi nazariy rivojiga asos bo'lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati til ta'limi tizimini metodologik jihatdan boyitishga, o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilish imkoniyati, o'quv yurtlari uchun maxsus lug'atlar, dasturlar, yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlashda, maxsus kurs va seminarlarni tashkil qilishda ahamiyatligi bilan hamda "Zamonaviy tilshunoslik", "Matn tilshunosligi", "Pragmalingvistika", "Aksiologik tilshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda jalb qilinishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Olam lisoniy manzarasida baho kategoriyasining diskursiv-pragmatik xususiyatlari ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirma tadqiqi jarayonida olingan nazariy va amaliy natijalari asosida:

olamning baholi lisoniy manzarasi insonning ongli faoliyati mahsuli ekanligini va uning shakllanishida voqelikni idrok etuvchi shaxsning xis-tuyg'ulari, dunyoqarashi ijtimoiy maqomi aks topishi kabi lisoniy – diskursiv holatlar hamda baho kategoriyasini antropotsentrik paradigma doirasida namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida PZ-20170930309 "Qoraqalpoq folklori tilning adabiy til rivojiga ta'siri masalasi" mavzusidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 2023-yil 25-apreldagi 01-21-02/906-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek tillari misolida olam baholi manzarasining lingvomadaniy, lingvokognitiv, pragmatik va diskursiv belgilarini ajratish hamda shu asosda baho birliklarining kategoriyalashtirish usulini ochib berishda erishilgan;

ingliz va o'zbek tillari misolida baho inson ongli faoliyati natijasini, subyektning voqelik obyektiga nisbatan ijobiy/salbiy munosabatini, narsa-hodisalar xususiyatining ijobiy yoki salbiy idrok etilishini, ontologik mohiyatini,

qarama-qarshilik olam lisoniy manzarasini voqelantirishda lingvomadaniy, lingvokognitiv, pragmatik va diskursiv belgilarning ustivorligiga oid nazariy xulosalardan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limida FA-FI-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 18- apreldagi 187/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq tili so‘z yasash tizimi tavsifi olam lisoniy manzarasini shakllantirishda lingvomadaniy, lingvokognitiv, pragmatik va diskursiv belgilarining ustivorligiga oid nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirilgan;

olam manzarasining baholi kategoriyalashtirish bilan bo‘g‘liq mantiqiy harakatlar asosan tavsifiy yoki antropotsentrik xarakterga ega bo‘lishi, uning ma‘lum milliy madaniyatga xos qadriyatlar tizimiga, jamoaviy va shaxsiy fikr hamda me‘yorlarga asoslanishi va ma‘lum bir milliy til zamirida voqelanishiga oid natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 13-apreldagi 968/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqot ilmiy natijalarining qo‘llanilishi “Zamonaviy lingvistika”, “Lingvistik pragmatikaga kirish”, “Pragmalingvistika” fanlari bo‘yicha virtual resurslarni yaratish jarayonini jadallashtirish imkonini bergan;

chog‘ishtirma lingvomadaniyatlarda olam manzarasi baholi tasvirining turli janr va ko‘rinishdagi matnlarda voqelanishini o‘rganish jarayonida paremiologik, komik, satirik kabi matn namunalarning aksiologik mohiyati, sezgiga oid, ratsional va emotsional turlar jihatdan o‘xshash va variativ xarakterda ekanligiga oid natijalaridan Yevropa ittifoqining Erasmus + dasturining 2016-2018 yillarga mo‘ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli xalqaro loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 13-apreldagi 971/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Natijada ilmiy natijalar ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida yaratilgan qo‘llanmalar, maqolalar, tezislar yozishda yangi yondashuvlar sifatida xizmat qilgan;

nutqiy aktlarning diskurs tarkibida ijobiy yoki salbiy baho pragmatik mazmuniga ega bo‘lishi muloqot ishtirokchilari o‘zaro munosabati simmetrik yoxud asimmetrik ko‘rinishda kechishi bilan bog‘liqligi maqtov, takalluf, maslahat, tavsiya, pand-nasihati, va‘da, tahdid, tanbeh, ta‘na qilish, kinoya kabi nutqiy harakatlar natijasi ekanligiga oid xulosalardan Yevropa Ittifoqining 2014-2016 yillarga mo‘ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPSR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 13-apreldagi 970/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu usul turli pragmatik vositalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan

“Lingvistik pragmatikaga kirish”, “Diskursologiya”, “Matn tahlili” kabi fanlarning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilgan.

olamning baholi lisoniy manzarasi insonning ongli faoliyati mahsuli ekanligini va uning shakllanishida voqelikni idrok etuvchi shaxsning xis-tuygʻulari, dunyoqarashi ijtimoiy maqomi aks topishini inobatga olgan holda baho kategoriyasini antropotsentrik paradigma doirasida namoyon boʻlishi bilan bogʻliq xulosa va natijalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yil 29-aprel kuni efirga uzatilgan “Sifatli taʼlim–taraqqiyot poydevori” koʻrsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 2-may №01-07/151-son maʼlumotnomasi). Natijada ilmiy-maʼrifiy ahamiyatga ega tavsiyalardan keyingi koʻrsatuvlarda ham foydalanish koʻzda tutilgan hamda ushbu telekoʻrsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ilmiy dalillarga boy boʻlishiga erishilgan va koʻrsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan, 11 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 38 ta ilmiy ish eʼlon qilingan, shulardan 1 ta monografiya, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola, jumladan, 12 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat boʻlib, umumiy hajmi 263 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi boʻyicha mamlakatda olib borilgan tadqiqotlarning sharhi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi boʻyicha maʼlumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Baho kategoriyasi pragmatik-diskursiv tadqiqining nazariy asoslari”** deb nomlangan boʻlib, unda jahon va oʻzbek tilshunoslarining baho hodisasiga nisbatan bildirgan fikr–mulohazalari va baho kategoriyasi lisoniy voqelanishining nazariy asoslari oʻrganilib, mazkur kategoriyani pragmatik–diskursiv yoʻnalish doirasida tahlil qilishning nazariy–metodologik asoslari belgilangan.

Insonning voqelikni kuzatish jarayonida namoyon bo‘ladigan munosabati va ruhiy harakatlarining mundarijasi turli-tuman bo‘lishi aniq. Uning voqelik haqidagi hayotiy tajribasiga asoslangan xulosasi falsafiy bahoni, ushbu voqelikning turli holatlariga bildirayotgan munosabati esa bahoning mantiqiy asosini belgilaydi. Biroq, turli ko‘rinishdagi baholarni o‘zaro tutashtirib turuvchi markaz nutqiy faoliyatdir.

Bahoning yuqorida sanab o‘tilgan turlari ko‘pincha estetik xususiyatga ega bo‘lib, ular ma‘naviy–axloqiy asosga ega. Obyektga baho berish subyekt mansub bo‘lgan jamiyatda hukmron bo‘lgan axloqiy me‘yorlarga qay darajada amal qilishi bilan bog‘liq. Ma‘lumki, axloqiy qonun-qoidalar xalqlar tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, silliqlangan va voqea-hodisalar, inson faoliyatining axloqiy mezonlariga mos kelishi-kelmasligiga binoan qat‘iylashgan.

Ravshanki, estetik baho subyektiv va obyektiv xususiyatga ega. Ulardan birinchisi shaxsning mulohaza, kechinma, qarashlari doirasida shakllansa, ikkinchisida esa narsa-hodisaning mohiyati aks etadi. Zotan, biron bir shaxs predmet hodisalarini estetik nuqtai nazardan baholar ekan, avvalo, ma‘naviy mezonlarga asoslansa, so‘ngra jamiyatda belgilab qo‘yilgan me‘yorlarga tayanadi. Atrof-muhitdagi o‘zgarishlar inson ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatishi tabiiydir. Binobarin, qish mavsumida yalang‘och bo‘lib qolgan bog‘lar, dalalar bahorda yam-yashil tus olib, gullarga burkanganida olam manzarasining bahosi ham o‘zgacha mazmun olishi turgan gap. Bunda baho obyekt aslidagidek qolsa-da, lekin manbaga nisbatan subyektiv munosabat boshqacha yo‘nalishda kechadi.

Xullas olamni idrok etuvchi shaxsning ruhiyati, uning kechayotgan voqea–hodisalardan zavqlanishi hamda kechinmalari til tizimida mavjud bo‘lgan baholovchi vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Berilayotgan baho subyektning obyektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi, hayotiy tajribasi, ma‘lumoti, kabi omillar va hatto jinsi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Bahoning, shuningdek, har bir milliy-madaniyatda o‘ziga xos ravishda belgilangan mezonlari mavjud va bu mezonlar ko‘pincha millatning diniy dunyoqarashi, an‘ana, udumlariga borib taqaladi.

Shuning bilan birgalikda, baholash harakatida madaniyatlararo umumiylik ayniqsa metaforik ko‘chimlar yuzaga kelishida ko‘proq uchraydi. Zero, metafora insonlar intellektual turmushining ajralmas qismidir<sup>25</sup>.

Shu bois, florionimlar turli tillarda insonni ta‘riflash uchun qo‘llanilganida hosil bo‘ladigan metaforalar mazmunida tillararo uyg‘unlik kuzatiladi. Masalan ingliz tilidagi she is flower metaforik tuzilmasining o‘zbek tilidagi muqobili “bu qiz guldir” ekanligiga gumon yo‘q. “Gul” florionimining bunday metaforik ko‘chimni hosil qilishi, o‘z navbatida, uning go‘zal, nozik, kishiga huzur baxsh etadigan o‘simlikning nomi ekanligi bilan izohlanadi.

Shu asnoda, olam lisoniy manzarasining yaralishi jarayoni obyektiv va subyektiv omillar o‘zaro munosabati doirasida kechadi. Ulardan birinchisi voqelikdagi qonuniyatlarga asoslansa, subyektiv omillar esa insonning biologik va

---

<sup>25</sup>Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018. – 160 p.; Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor//Metaphor and Thought. – Cambridge: CUP, 1993. [www.ac.www.edu.market/semiotic/lkf.met.html](http://www.ac.www.edu.market/semiotic/lkf.met.html).

ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘liq. Mazkur omillarning o‘zaro aloqasi lisoniy birliklar tanlovini ta’minlaydi.

Obyektiv borliqning lisoniy voqelanishining aniqligi darajasini til tizimi turli sathlarida yuzaga keladigan hodisalar tabiatini kuzatish orqali belgilash mumkin.

Baho hodisasi g‘arb tilshunosligida keng qamrovli o‘rganilgan bo‘lib, ushbu hodisa tahlili bilan mashg‘ul bo‘lishgan olimlar uchta tadqiq yo‘nalishlarini ajratadilar: qiymatni aniqlash nazariyasi (appraisal theory), maqom, ahamiyat nazariyasi (status/relevance theory), metadiskurs (metadiscourse).

Qiymatni aniqlash nazariyasi London funksional tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, narsa-hodisalarga ijtimoiy-tajriba nuqtai-nazaridan baho berish, ularning qiymatini belgilash g‘oyasini targ‘ib qiladi<sup>26</sup>. Ushbu nazariya doirasida baholash faoliyati voqelanishini ta’minlovchi grammatik va leksik vositalar tavsifiga alohida e’tibor beriladi.

Yana bir britaniyalik tilshunos S.Hanston bahoning uchta vazifasini ajratadi: maqomni belgilash (obyektni propozitsiyadan tashqarida baholaydi); qiymatni belgilash (obyekt matndan tashqari va uning tarkibida baholanadi); narsa-hodisa ahamiyatini belgilash<sup>27</sup>.

S.Hanston taklif qilayotgan tavsiyalar baholash harakatining uchta bosqichini ajratishga qaratilgan: a) baholanishi kerak bo‘lgan obyektlarni aniqlash va tasniflash; b) ushbu obyekt qiymatini aniqlash orqali boshqalardan farqlash; v) ma’lum qilinayotgan axborotning ahamiyatini belgilash. Ajratilayotgan harakat bosqichlarining bir-biridan farq qilishi bilan birgalikda, ularning o‘zaro aloqadorligi, biri ikkinchisini to‘ldirib borishi yaqqol ko‘rinib turibdi.

So‘nggi paytlarda baho hodisasining kognitiv tilshunoslik doirasida o‘rganish amaliyoti keng avj olmoqda. Ayniqsa, rus tilshunoslari bahoning konseptual faoliyat jarayonida shakllanishi va uning konsept mazmunidan joy olishi muammosi tadqiqi bilan mashg‘ul bo‘lmoqdalar. Jumladan, L.O.Cherneyko, L.A.Sergeyeva baho ma’nosining kategoriallashuv jarayonini yoritishga harakat qilgan bo‘lsalar, boshqalari baho konseptlarining voqelantiruvchi lisoniy vositalarni tahlil qiladilar<sup>28</sup>. Rus tilshunosligida baho kategoriyasini funksional-semantik yondashuv asosida o‘rganuvchi alohida yo‘nalish shakllanib ulgur<sup>29</sup>. Baho kategoriyasining pragmatik mohiyati va uning nutqiy aktlar tizimida voqelanishi masalasi pragmalingsvistika sohasida izchil muhokama qilinib kelinmoqda.

Yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlarda tadqiqotchilar baho kategoriyasining boshqa yondosh hodisalar bilan aloqasi va uning lisoniy, pragmasemantik tabiatini belgilovchi omillarni tavsiflashga intilganlar. Shuningdek, baholash inson lisoniy-

<sup>26</sup>Martin J., White P. The Language of Evaluation: Appraisal in English. – L.: Palgrave, 2005. – 301 p.

<sup>27</sup>Hunston S. Counting the uncountable: problems of identifying evaluation in a text and corpus // Corpora and Discourse. – Frankfurt: Peter Lang, 2004. – P. 157-188.

<sup>28</sup>Чернейко Л.О. Порождение и восприятие межличностных оценок // Филологические науки, 1996. № 6. – С. 42-53.; Болдырев Н.Н. Оценочные категории как формат знания // Когнитивные исследования языка. Вып. III. – Тамбов, 2008. – С. 25-37.

<sup>29</sup>Вольф Е.М. Оценочное значение и соотношение признаков “хорошо / плохо” // Вопросы языкознания, 1986. -№ 5. – С. 98-106.

tafakkur faoliyatining ajralmas qismi ekanligini isbotlovchi dalillarni jamlash borasida mukammal izlanishlar olib borilgan.

Xullas, baho ko'p qirrali murakkab hodisadir va uning mohiyati, tabiati, o'ziga xos xususiyatini o'rganish fanlararo muammo hisoblanadi. Tilshunoslikda ushbu muammo turli yondashuvlar asosida tadqiq qilinib kelinmoqda. Mazkur yondashuvlar baho ma'nolarining turlari va ularni yuzaga keltiruvchi vositalarni tavsiflash orqali baho kategoriyasining lingvistik nazariyasi rivojiga xizmat qilib kelmoqda.

Baho harakatining tabiatini shakllantiruvchi asosiy kategorial belgi, albatta, uning antropotsentrikligidir. Baholashning antropotsentrik xususiyati uning asosiy vazifalari ko'lamini belgilaydi. Masalan, bahoning voqelikni bilish bilan bog'liq gnoseologik vazifasi subyekt va obyekt munosabatining olamning me'yoriy manzarasi sari yo'nalish olishida ko'rinadi. Kommunikativ vazifa yuzaga chiqishida esa nutqiy baho tinglovchi tomonidan predmet haqidagi axborot ko'rinishida qabul qilinadi. Nihoyat, ekspressiv vazifa faollashuvida so'zlovchi, predmet haqida fikr bildirayotib, tinglovchiga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi.

Bahoning yana bir muhim belgisi uning kognitiv tabiatga ega ekanligidadir. Baho olamni tasniflash bilan birgalikda, voqelikni bilish bilan ham bog'liq. Baholash harakati jarayonida fikr, hukm shakllanadi, inson ongida bilim tuzilmalari hosil bo'ladi va shu asnoda nutqiy faoliyat amalga oshirilib, muloqot sharoitida yuzaga kelgan nutqiy tuzilmalar ma'nosi anglashiniladi.

Pragmatika ham bahoning asosiy kategorial belgilaridan biridir. Zotan, baho o'z ehtiyojini qondirish uchun boshqalar nuqtai nazari, fikriga ta'sir ko'rsatish uchun beriladi<sup>30</sup>. Baho pragmatikasi subyektning maqsadi doirasida namoyon bo'ladi va obyekt haqida to'liq bilimga ega bo'lish uchun axborotga qaytadan mantiqan ishlov berishni talab qiladi.

Bahoning navbatdagi kategorial belgisi uning subyektivligi bilan bog'liq. Baho olamni subyekt tomonidan idrok etilishi jarayonida paydo bo'ladi. Ushbu jarayonda borliq obyektlari va hodisalari shaxsga ta'sir ko'rsatadi va mazkur ta'sir turli shaxslarga nisbatan turlicha me'yorda bo'lishi mumkin. Baho tuzilmalarining subyektiv xarakteri uzluksizdir, aks holda ular aksiologik vazifa ijrosidan xoli bo'ladilar.

Shuningdek, me'yoriylik ham bahoning tabiatida mavjud bo'lgan kategorial belgidir. Insonning atrof-muhitdagi narsa hodislarga munosabati ma'lum bir me'yoriy mezon asosida shakllanadi. Odamlar u yoki bu jamoada tarixan shakllangan me'yorlarga tayangan holda baholash harakatini bajaradilar. Hayotiy tajriba jarayonida o'zlashtirilgan qolip, mezonlar kechayotgan hodisa, voqelarni baholash uchun xizmat qiladi.

Ajratilgan kategorial belgilar baho strukturasiida turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lsalar-da, lekin ularning o'zaro aloqasini inobatga olish baholash mexanizmlarini harakatga keltiruvchi vositalar tabiatini yoritishda muhimdir. Zero,

---

<sup>30</sup>Alexander R. Fixed expressions in English: a linguistic, psycholinguistic, sociolinguistic and didactic study // Anglistik und Englischunterricht, 1988. – vol. 6. – P. 88-171 p.

olam lisoniy manzarasining baho olayotgan qismining tadqiqi mukammal jarayon bo‘lib, uni amalga oshirish uchun baho kategoriyasining turli jihatlarini majmuaviy, o‘zaro bog‘liqda o‘rganish lozim bo‘ladi.

Ishning **“Olam lisoniy manzarasining baholi–emotsional ifodalanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida olam lisoniy manzarasi shakllanishida baho kategoriyasining roli aniqlanib, voqelikda kechayotgan voqea–hodisalarga baho berish subyektiv xarakterga egaligi isbotlangan hamda olamning lisoniy va konseptual manzaralari o‘rtasidagi munosabatning mohiyati voqelikning til va madaniyatda aks etishi bilan bog‘liqligi yoritilgan.

Olam lisoniy manzarasining shakllanishida kategoriyalarning roli, professor Z.G.Burdinaning ta‘biricha, “uning tavsifida muhim o‘rin egallashdan iboratdir”<sup>31</sup>. Sifat kategoriyasi, atrofimizdagi voqelik haqida, muloqot ishtirokchilari va ularning qadriyatlar borasidagi xulosalari haqida ma‘lumot berish bilan bir qatorda, inson hayotining barcha jabhalarida (ishlab chiqarish, ma‘naviy, madaniy, mental, shaxslararo munosabat kabi) namoyon bo‘ladi.

Baho va sifat kategoriyalari chambarchas aloqada, ularning lisoniy voqelanishida muloqot matnining milliy–madaniy mundarijasi shakllanadi. Ularda jamiyatning madaniy–tarixiy xususiyatlari, ma‘lum jamoaga xos bo‘lgan muloqot normasi, etik–estetik me‘yorlar, mentalitet, qadriyatlar tizimi aks etadi. Bularning barchasidan xabardor bo‘lish madaniyatlararo muloqotning samarasini ta‘minlash uchun naqadar muhimligidan ko‘pchilik xabardor. “Qadriyat mo‘ljali” (value orientation), o‘z navbatida, jamoaviy ongning muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lish bilan bir qatorda, uning asosiy bo‘lagidir. Qizig‘i, “qadriyat” tushunchasining ushbu xususiyatlari lug‘at va qomuslarda ham qayd etiladi. Jumladan, ingliz tili izohli lug‘atlarida “qadriyat” ma‘lum guruh yoki jamoalarning hayot tarzi va faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatadigan tamoyillar ko‘rinishida tavsiflanadi:

value – a set of principles, beliefs which influence behavior and the way of life of a particular group or community [MED: 1588].

Shuningdek, “Ma‘naviyat” lug‘atida qadriyat tushunchasining ingliz tiliga spiritual property, spiritual value ko‘rinishida o‘girilishi<sup>32</sup> ushbu tushunchaning mazmun–mundarijasini to‘liq aks ettirmasligini aytib o‘tmoqchimiz. Birinchidan, qadriyatlarining hammasi ham bir tekis ma‘naviyatga xos bo‘lavermasligi ma‘lum. Ikkinchidan, qadriyat so‘zining yana bir ma‘nosi “qiymat, ahamiyat” ekanligini bilamiz (bu lug‘atlardagi so‘zlikda ham qayd etilgan). Demak, biz narsa va hodisalarga qiymati, shaxs va jamoa uchun ahamiyatiga nisbatan baho beramiz va shu asnoda ularni qadrlaymiz.

Shunday ekan, “qadriyatning mo‘ljali” faqat omma ongining oddiygina namoyishi bo‘libgina qolmasdan, balki baho faoliyatining eng asosiy nuqtasidir. Uning harakati, taraqqiyoti idrok etilayotgan obyektning sifat ko‘rsatkichlari haqida ishonchli xulosaga yetaklaydi.

<sup>31</sup>Бурдина З.Г. Традиционное и инновационное в теории категоризации // Материала международной конференции, посвященной научному наследию М.Д.Степановой. – М.: МГЛУ, 2001. – С. 38-43.

<sup>32</sup>Махмудов Н., Саидкулов З., Сотимов Ф., Нишонов М., Абдуллаев А., Байназарова А. Словарь духовности. – Т.: Манавият, 2012. – 224 с.

Ma'lumki, har bir madaniyatda, umumbashariylaridan tashqari, o'ziga xos qadriyat mo'ljali amal qiladi. Misol tariqasida "muhabbat" tushunchasining o'zbek va gruzin millatlaridagi qadru–qiymatini qiyoslaydigan bo'lsak, ular o'rtasidagi farq sezilarli darajada ekanligini ko'ramiz. Etnolog G.Gachevning ta'rificha, gruzin millati uchun do'stlik muhabbatdan ustun turadi. Shuning uchun ham gruzin eposining qahramoni muhabbat uchun emas, balki do'stlik uchun aqlu–hushini yo'qotadi. She'riyatda xotin sevgili, suyuqli rafiqqa sifatida emas, balki singil ramzida ulug'lanadi<sup>33</sup>. Bizning millat ongida muhabbat yo'lida "majnun" bo'lish mustahkam joylashgan, shoirlarimiz do'stlikdan ko'ra muhabbat haqida ko'proq yozadilar. Xotin do'st bo'lishi mumkin, lekin hech qachon opa yoki singil rolini bajarmaydi.

Qadr–qiymat, narsa–hodisaning bahosi haqidagi fikr yoki hukm bo'lganligi sababli, undagi ma'lum sifatni belgilaydi. Baho xulosasiga kelayotgan shaxs predmetlar, kishilar, hodisalarni sifatlaydi va guruhlarga tasniflaydi.

Baholi konseptuallashtirish–voqelikdagi narsa–hodisalarni baho berish yo'li bilan idrok etish natijasi bo'lib, uning yakunida inson ongida baho konsepti hosil bo'ladi. Shunga binoan, baholi kategoriyalashtirish predmet va hodisalarni qadri, qiymatiga nisbatan guruhlashdir. Ushbu kategoriya shakllanishining kognitiv asosida baho konsepti turadi.

Baho konseptlari negizida turadigan me'yoriy namunalar turli asoslarga ega ekanligi sababli baholi kategoriyalashtirish ham sezgiga oid, ratsional va emotsional bo'lishi muqarrar. Ushbu turdagi baho kategoriyasi til tizimida aks etishi ham kutilgan holdir.

Sezgiga oid baho voqelikning sezgi organlari bilan bog'liq holda lisoniy voqelanishida yuzaga keladi. Masalan: Tea is cold "Sovuq choy", "This apple is sour", "Nordon olma", Sugar is sweet "Shakar shirin"; The room is warm "Iliq xona" va h.k.

Ratsional baho kategoriyalari narsa–hodisalarning ma'lum me'yor yoki namunaga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlashni nazarda tutadi va turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, etik - good behaviour / bad behaviour "yaxshi harakat / axmoqona harakat"; estetik–beautiful face / ugly face "chiroyli chehra / xunuk yuz"; intellektual - a fool pupil / a clever pupil "kaltafahm o'quvchi / aqlli o'quvchi"; amaliy – useful thing /useless thing "foydali narsa / foydasiz narsa".

Emotsional baho kategoriyalari insonning voqelikka munosabati doirasida shakllanib, u muhim deb hisoblayotgan me'yor va xatti–harakatga dahldor bo'ladi. Shu sabab, emotsional baho shaxs fikrini aks ettirib, subyektiv xarakterga ega bo'ladi, zero ushbu baho voqelikning alohida shaxs tomonidan idrok etilishi, unga tegishli qiymatlar mezoni bilan bog'liqdir.

Hozirgi ingliz tili tizimida o'z konseptual mundarijasida yuqori darajadagi emotsional – baho semasiga ega bo'lgan sifatlar guruhi mavjudligi hech qanday

---

<sup>33</sup>Gачев Г. Ментальности народов мира. – М.: Алгоритм, 2008. – 541 с.

gumonga yo‘l bermaydi. Izoh tariqasida Oksford lug‘atidan tanlab olingan quyidagi nutqiy tuzilmalarni keltiramiz:

*What banging, what cursing long – long is with thee; the blithering incompetence; break his blithering neck; a clipping finish for the Feather plate; what clipping girls there were in....; the clippinest places for bathing; the tedious description of spring and the everlasting nightingale; in a howling garret remote from the loggers; Ko‘rinadiki, - ing suffiksi ishtirokidagi sifatlar umumlashgan ma‘noni olib, emotsional–baho kategoriyasiga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan.*

Umuman, so‘z yasovchi modellar tarkibida kechadigan struktur–semantik siljishlar ko‘p paytlarda suffiksning ahamiyatini oshiradi va u emotsional–bahoni ifodalash “yuki”ni o‘z zimmasiga oladi. Oqibatda, modelning semantik rivoji umumlashadi.

O‘zbek tilida emotsional baho kategoriyasini voqelantirishda ishtirok etadigan morfologik va leksik vositalarining ro‘yxati ancha keng. Birgina o‘xshatish konstruksiyalarida ushbu vazifani -day, dayin, -dek, -dekkina, -din, -simon, -ona, -cha, -larcha, -affiksal vositalari va kabi, misli, xuddi, ham yordamchi so‘zlari bajaradi. Biroq mazkur affikslar ishtirok etayotgan modellar yuqorida eslatilgan ingliz tilidagi modeldan struktur–semantik jihatdan birmuncha farq qiladi. Agarda -ing suffiksi yordamida hosil bo‘lgan sifatlarning derivatsion asosini fe‘l turkumidagi so‘zlar tashkil qilsa, o‘zbek tilida esa, -day qo‘shimchasi asosan otlar bilan birikuvda sifatlarni yasaydilar. O‘xshatish bahosi ma‘nosiga ega bo‘lgan bunday sifatlarning derivatsion asosida turgan otlar turli leksik–semantik guruhlarga kiradilar.

Demak, baho kategoriyalari va baho vositalari bo‘lgan lisoniy birliklar turli konseptual asosga ega. Shu bois, ushbu kategoriyalar turli mundarijadagi konseptlar voqelanishida qatnashadi. Baho kategoriyalariga oid konseptlar nolisoniy harakterdagi hodisalarning xususiy–belgilarini namoyish qilsa, baho leksemalarining konseptual mundarijasida ushbu so‘zlarning baho ma‘nosiga ega bo‘lgan xususiyatlari aks etadi.

Shu o‘rinda olam manzarasining eng asosiy ikki turi lisoniy va konseptual ko‘rinishlarga ega ekanligini alohida ta‘kidlamoqchimiz. So‘nggi yillar davomida olamning lisoniy manzarasi voqelikni bilish va idrok etilayotgan voqea–hodisalarni idrok etishda faol ishtirok etadigan tuzilma ekanligi aniqlandi. Ushbu tuzilma bizning voqelikni qabul qilish va uni baholash qobiliyatimizni o‘rab turgan o‘ziga xos “to‘r” bo‘lib, u turli vaziyat va hodisalarni til hamda tajriba ko‘lamida “ko‘rishga” undaydi. Mazkur tajriba, o‘z navbatida, tilni, uning lug‘at tarkibi, lisoniy birliklarning paydo bo‘lishi hamda nutqiy faollashuvi qonun–qoidalarini o‘zlashtirish davomida rivojlanadi. Ayni paytda, olamning lisoniy manzarasi–voqelik haqidagi bilim, uning konseptuallashuvi mahsulidir.

Olamning konseptual va lisoniy manzaralari o‘rtasidagi munosabat ko‘pqirrali va murakkabdir. Ushbu munosabatning mohiyati voqelikning til va madaniyatda aks etishi bilan bog‘liq. Konseptual manzara shaxsning kundalik va voqelikni bilishga yo‘naltirilgan faoliyati natijasida va shu jarayonda olam timsolining

turlicha tasvirlari oqibatida hosil bo'ladi. Shuningdek, bunda nolisoniy ko'rinishdagi tagma'no, presuppozitsiya shaklidagi omillar ham qatnashadi.

Demak, olam manzarasi ongning emotsional hududida yangidan–yangi bo'yoqlarni oladi. Shunga binoan, voqelikning hissiyotli idroki oqibatida olamning emotsional manzarasi hosil bo'lishini e'tirof etmaslikning iloji yo'q, deb hisoblaymiz. Lug'aviy birliklar, nutqiy tuzilmalar orqali ifodalanayotgan his–tuyg'u tushunchalari ma'lum til sohiblariga tushunarli bo'ladi, chunki ular konseptlar ko'rinishida so'zlovchilarning ongida o'rinishadi hamda atrof–muhitni aks ettiruvchi konseptual shakllar vazifasini bajaradilar.

Dissertatsiyaning **“Baho konseptining turli janrdagi matnlarda voqelanishi”** deb nomlangan uchinchi bobida baho konseptining paremiologik, siyosiy, badiiy va boshqa janrdagi matnlarda faollashuvi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan. Bunda olam komik va satirik manzaralarining baholi tasvirini namoyon qiluvchi pragmatik mexanizmlar tavsifiga alohida e'tibor qaratilgan.

Obyektiv borliq barcha etnoslar uchun bir xil emas, chunki har bir elat uning ma'lum bir qismini idrok etadi. Alohida xalq olamning faqat bir manzarasini “ko'radi” va faqat shu manzara uning konseptual harakatlari mo'ljalini belgilaydi, lisoniy voqelanadi, olamning boshqa manzaralari haqidagi tasavvur esa qismanligicha qoladi.

Olam umumiy manzarasidagi farqlar lingvomadaniy xususiyatga egaligi ana shunda namoyon bo'ladi. Milliy madaniyatning barcha nozikliklari milliy tilda aks topadi, har bir til o'ziga xos va mos ravishda olam manzarasini voqelantiradi. Qandayki bo'lmasin, inson voqelik haqidagi axborotni til vositasida qabul qiladi. Shuning uchun ham inson o'z intellektual, ruhiy ijtimoiy ehtiyojlariga muqobil ravishda o'zi yaratgan konseptlar dunyosida yashaydi desak, xato bo'lmas kerak.

Estetik xususiyatli matnlarga til zahirasi bilan maqsadli foydalanish xosdir. Badiiy matnning lug'at tarkibidagi birliklarning axborot uzatishi ko'lami keng, zotan matnning lisoniy qobig'i mazmun ifodasining asosiy vositasi bo'lib, har bir so'z “chertib” tanlanadi. Bunday tartibotli tuzilish o'quvchiga nafaqat yozilganni, balki “qatorlar ortida yashiringan” mazmuni ham anglashga zamin yaratadi. Muallif faqat unga, uning uslubiga xos ifoda vositalarini kashf qiladi. Muallif, lisoniy shaxs sifatida matnni san'at asari darajasida yaratadi va, har qanday ijodkorga xos bo'lganidek, o'z kommunikativ maqsadini milliy til tilsimlariga hozirjavob ko'rinishda amalga oshiradi.

Lisoniy shaxs sifatida ijod qilayotgan badiiy asar muallifining ongli faoliyati lisoniy va nolisoniy omillarning o'zaro bog'liqligida kechadi. Voqea–hodisalar mohiyati, tafsilotini aniq bayon qilish maqsadini ko'zlayotgan muallif asosiy konseptlarga murojaat qiladi va o'quvchining diqqatini matnning yetakchi mazmuniga tortishga harakat qiladi. Shu asnodan, lisoniy va uslubiy birliklar vositasida hosil qilinadigan idrok muhiti, olamning ikkilamchi, ya'ni badiiy manzarasini kuzatish imkonini beradi. Bunda matn mazmuni markazida turgan konseptlar badiiy konsept niqobini taqadi.

Ta'kidlash joizki, olamning manzarasi badiiy matnda asosan obrazlar vositasida gavdalanadi. Til birliklarining baholash qobiliyati ham ko'pchilik holatlarda timsollar orqali voqelanadi. Tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha,

olamning obrazi tilning estetik vazifasi faollashuvida namoyon bo‘ladigan muallifning individual ijodiga xos bo‘lgan olam manzarasi maydonida hosil bo‘ladi. Shu asnoda, olamning badiiy manzarasi alohida lisoniy shaxs ijodi mahsuli bo‘lib, uning konseptosferasi hududida shakllanadi. Shu bois, u yoki bu konseptning semantik maydonini tahlil qilayotib, ushbu maydonni shakllantiruvchi shaxs – muallifning olamga bo‘lgan munosabati, “ichki dunyosi”ga e’tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi. Zotan, har bir lisoniy shaxs voqelikdagi voqea–hodisalarni baholashda o‘ziga ma’qul mezonlarga amal qiladi va olam manzarasini o‘z o‘lchoviga muqobil ravishda tasvirlashga harakat qiladi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani sahifalarida muallifning konseptual maydoni baho va badiiy konseptlarning uyg‘unlashuvi zamirida yuzaga keladigan olamning obrazli manzarasi qanday voqelanishini kuzatishga harakat qilamiz. Qiyoslang: Otabekning *Marg‘ilondan uylanib qo‘yishi otasi uchun uncha rizosizlikka mujib bo‘lmasa ham, ammo uning o‘g‘il to‘yisidan boshlab, Toshkand qizlarini ost–ust qilib u “buning qizi yaxshi bo‘lsa ham, uy–joylari yaramas ekan; buning uy–joylari tuzuk bo‘lsa ham, qizi ko‘rksiz ekan; buning qizi-da, uylarida tuzik, biroq zoti past ekan”, deb qiz, quda, uy, joy, nasl va nasab tekshirib yuruvchi O‘zbek oyimning Otabekni uylandirib buning orqasidan ko‘raturgan orzu–havas, to‘yu tomoshalarini bo‘g‘ib qo‘ygan bu uylanishka nima deyishi va qanday qarashi albatta ma’lum edi. Bittayu–bitta o‘g‘li Marg‘ilon degan joyda, allakimlarning qo‘lida, asli noma’lum kishilarning qizig‘a uylansin-da, bu kun–erta o‘g‘lumning orzu–havasini ko‘raman, deb entikib o‘lturg‘an va o‘g‘il boqib katta qilg‘an ona–O‘zbek oyim ikki qo‘lini burniga tiqib qarab qolaversin...* (Abdulla Qodiriy. *O‘tkan kunlar*).

Ushbu parcha baho harakati muallif konseptosferasi doirasida voqelanishining yorqin namunasidir.

J.Faulzning ilk asarlaridan bo‘lgan “Aristos” romanining asosiy g‘oyaviy mazmuni “ozodlik” va “shaxs” qadriyatlarini ulug‘lashdan iborat. Roman matni bilan tanishish tanlov erkinligiga ega bo‘lish va “o‘z hayoti uchun o‘zi javob berishi kerakligi” inson shakllanishining asosiy omili ekanligini ko‘rsatadi.

Erkinlikni inkor etish kishining o‘z shaxsidan voz kechishini anglatadi. Hayot–o‘z ekrinligi, o‘z shaxsi uchun, maqsadga va muhabbatga erishish yo‘lidagi doimiy kurashdir. Bu yo‘lda inson o‘z ifodasini namoyon qiladi va javobgarlikni his etadi. U o‘zi uchun, o‘z hayoti, xatti–harakati uchun hamda mazkur harakatning boshqalarga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’siri uchun javobgar. Qiyoslang:

*All this business, it’s bound up with my bossy attitude to life. I’ve always known where I am going, how I want things happen. And they have happened as I have wanted, and I have taken it for granted that they have because I know where I’m going. But I have been lucky in all sort of things. I have always tried to happen to life, but it’s time to let life happen to me. Life is a bit of joke, it’s silly to take it seriously. Be serious about art, but joke a little about everything else [the Collector, p.267].*

J.Faulzning o‘z qahramonlariga beradigan bahosi “to‘da” va “ba’zilar” (mass fews). Miranda–yosh rassom, go‘zal aqlli shuning uchun u “one of the fews”

Kleggning bahosi esa tamoman teskari, qobiliyati past, ko‘rimsiz bu shaxs –“one of the mass”.

Romanda haqiqiy va asllikni ifodalovchi baho konseptlari ham o‘ziga xos tarzda voqelanadi:

*Art is cruel. You can get away with murder with words. But a picture is like a window straight through to your inmost heart. And all you’ve done here is build a lot of little windows on the heart of other fashionable artists’ paintings [The Collector, p. 250].*

J.Faulz qalamiga mansub asarlar matnlarida baho konseptlari eksplitsit va implitsit usullarda voqelanadi. Bunda yozuvchi turli real voqealar, faktlar, ko‘pchilikka tanish san’at asarlari hamda badiiy asarlarga murojaat qiladi va ulardan baho konseptlarini badiiy tafakkur birliklari qatorida tasvirlashda foydalanadi. Masalan: *That was the first time. He hated me for attracting him. The Professor Higgins side of him [The Collector, p. 264].*

Ushbu tuzilmada o‘xshatish usuliga murojaat qilish orqali muallif o‘z qahramonlarining ahloq borasidagi nuqtai–nazarini tasvirlamoqda. Xiggins va Eliza B.Shouning “Pygmalion” pyesasidagi personajlar, ularning nomlarining eslatilishi Jorj Paston va Mirandaning o‘zaro munosabatining ma’qul va noma’qul jihatlarini yoritishga imkon bermoqda.

Dissertatsiyaning **“Baho nutqiy aktini bajarishning pragmatik va sotsiolingvistik shartlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida turli ko‘rinishdagi muloqot muhitida voqelikni baholovchi nutqiy aktlar voqelanishining pragmatik xususiyati hamda shart–sharoitlari o‘rganilib, ijobiy va salbiy pragmatik mazmuniga ega nutqiy aktlar guruhlariga ajratilib, ularning diskursiv hamda lingvomadaniy belgilari izohlangan.

Kommunikativ–pragmatik yondashuvda turli kommunikativ strategiyalar qo‘llanishini nazarda tutuvchi baho tuzilmalarining tahliliga katta e’tibor beriladi. Baho hodisasining o‘rganilishi ayniqsa kommunikantlarning xatti–harakatlar rejasi yaqqol namoyon bo‘ladigan shaxslararo muloqotga doir muammolar tadqiqi uchun o‘ta muhimdir. Shunday qilib, baho ayniqsa ijobiy baho, inson xatti harakatlarini izmga soluvchi va nazorat qilib turuvchi hodisadir. Ijobiy bahodan hamsuhbatni dialogga undash, bir–birini anglashga sharoit yaratish uchun foydalanishdan tashqari, ba’zan uni ma’lum harakat, vazifani bajarishga majburlaydi ham<sup>34</sup>.

Dialogik muloqot muhitida kompliment ikki vazifani bajaradi va ulardan birinchisi baho obyektidan g‘ururlanish [bunda mo‘ljal–so‘zlovchi] bo‘lsa, ikkinchisi axborotning suhbatdoshga yoqimli bo‘lishini ta’minlashdir (mo‘ljal – tinglovchi). Tinglovchi komplimentni qabul qilish bilan bir paytda, kamtarlik ko‘rsatishga zarurat sezadi, aks holda obro‘ni yo‘qotish xavfi yo‘q emas. Shu sabab bo‘lsa kerak-ki, P.Braun va S.Levinson komplimentni “face–threatening acts”, ya’ni obro‘ga ta’sir qiluvchi nutqiy aktlar guruhiga qo‘shishni ma’qul ko‘radi<sup>35</sup>. Chunki kompliment nutqiy akti “suhbatdoshlar o‘rtasidagi tenglikni

<sup>34</sup>Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: CUP, 1987. – 310 p.; Ларина Т.В. Эмоциональность и эмотивность в коммуникации // Межкультурная коммуникация и перевод. – М., 2002. – С. 89-93.

<sup>35</sup>Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: CUP, 1987. – 310 p.

yo‘qotadi”<sup>36</sup>.

Komplimentga javob muloqotning oldingi bosqichida shakllangan mental maydonning qayta tuzilishiga olib keladi. Bunday kognitiv o‘zgarish hatto ikkita har xil baho maydonini yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holatlarni kuzatish uchun biz psixolingvistika va sotsiolingvistika yo‘nalishlarida sinovdan o‘tgan eksperiment–tajriba usuliga murojaat qilishni lozim topdik. Bu xildagi tajriba–sinovning o‘tkazilishida kommunikatsiya ishtirokchilarining yoshi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy roli, jinsi, ma’lumoti kabi sotsiomadaniy ko‘rsatkichlar inobatga olinadi.

Tajriba jarayonida biz o‘zbek va ingliz tillarida bitilgan va tugallangan qisqa dialoglardan iborat so‘rovnomalardan foydalandik. Respondentlardan kompliment nutqiy aktiga javob berish so‘raldi. Dialoglarni tuzish va ulardagi javob replikalari tahlilida muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy, yosh, jins va boshqa ko‘rsatkichlari e‘tiborga olindi.

Javoblar tahlili ko‘rsatishicha, respondentning so‘zlovchiga munosabati ijobiy bahoga ega [N1, 2, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 11], faqat ikkita holatda ushbu munosabat salbiy bahoga loyiqligi ma’lum bo‘ldi: Sakkiz vaziyatdan oltitasida [1, 2, 3, 4, 5, 6] kompliment sohibi–ayol bo‘lsa, qolgan beshtasida bu rol ni erkak kishi bajaradi [7, 8, 9, 10, 11]. O‘tkazilgan tajriba tadqiqotida A so‘zlovchining baho taktikasi va strategiyasi oldindan ma’lum, tinglovchi (V) ning harakat strategiyasi va uni amalga oshirish taktikasi tajriba jarayonida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalari quyidagi jadvallarda aks topgan:

## Jadval 2.

### O‘zbek tili sohiblarining komplimentga javobi

Vaziyatlar	Rizolik	Asoslash	Adresatni o‘zgartirish	Qaytarish	Kuchaytirish	Qabul qilmaslik	Susaytirish	Savol	E‘tiroz	Yon berish	Mavzuni o‘zgartirish
1	100	38	12	32							
2	85	17	51	39	13			23			
3				16			17				13
4	22			91							15
5	62	9			92		19	49			25
6	9	10	16	37							18
7	93	35	79	39			22		15	25	8
8	67	8	6	23	43				11	13	
9	29	24		10			24	7		26	34
10	69	12			22	19	15	12	9		15
11	41	9			14			62			13

<sup>36</sup>Вольф Е.М. Оценочное значение и соотношение признаков “хорошо / плохо” // Вопросы языкознания, 1986. -№ 5. – С. 98-106.

## Ingliz tili sohiblarining komplimentga javobi

Vaziyatlar	Rizolik	Asoslash	Adresatni o'zgartirish	Qaytarish	Kuchaytirish	Qabul qilmaslik	Susaytirish	Savol	E' tiroz	Yon berish	Mavzuni o'zgartirish
1	72	10		56							
2	64	47	67					11			
3						13	16				71
4	27	12		68						19	10
5	61	14	10		38	19	21	15		20	
6	70	20		36						11	
7	64	66		32	1	14	15		18	13	
8	66	33		21	19			55	17	37	49
9	57		34	39	18	10	16				39
10	72		17	29	62			38		31	17
11											

Ikkita jadval qiyosidan ma'lum bo'lishicha, o'zbek va ingliz tili sohiblari ko'pchilik vaziyatlarda bir xil javoblarni taqdim etdilar. Bu albatta, pragmatiklikning shaxslararo muloqot muhitlarida universal tamoyillar ustuvorlik qilishi haqidagi xulosalarini isbotlaydi.

Tajriba–sinov qatnashchilarining ko'pchiligi bu turdagi maqtovlarni ijobiy qabul qilishib, berilayotgan bahoga minnatdorchilik bildirishdi. Biroq bunday vaziyatda o'zbeklar maqtovga maqtov bilan javob berishni inglizlarga qaraganda biroz ko'proq ma'qul ko'radilar. Bunday holatda kommunikativ vaziyat strukturasi o'ziga xos o'zgarish yuz beradi: baho obyekt subyekt bilan o'rin almashadi. Masalan: Ajoyib ma'ruza qildingiz! Sizni chiqishingiz ham zo'r bo'ldi!

Shuningdek, qayta kompliment taktikasidan ayollarning nisbatan ko'proq foydalanishi aniq bo'ldi (ayollar nutqidagi ko'rsatkich 52% bo'lsa, erkaklarida–41 % ni tashkil qiladi).

Umuman, respondentlarning mavqeyi, yoshi, jinsidagi farqlarga qaramasdan, ularning javoblarida eng ko'p qo'llangan taktika komplimentga javob qaytarish ekanligi ma'lum bo'ldi. Ikkala millat ayollari qariyb bir xilda yon bosish yoki maqtovni yumshatish taktikalariga murojaat qildilar. Erkaklar nutqida esa bu holat kam uchradi. Respondentning shaxsiy xislatlariga xos komplimentlarda baho darajasi o'zgarib turgan bo'lsa, bajarilgan ish, faoliyatga nisbatan aytilayotgan maqtovlarda bu ko'rsatkich unchalik sezilarli emas.

Nutqiy harakatlarda ifodalanayotgan subyektiv munosabatlar ijobiy yoki salbiy xarakterga ega bo'lishini inobatga olib, baholi nutqiy aktlarni ikkita asosiy guruhga ajratib o'rganish ma'qul ko'rinadi. Jumladan, ijobiy baholi guruhga maqtash, maslahat, tabrik, taklif, minnatdorchilik, ma'qullash kabi nutqiy aktlar

kirsa, salbiy guruhni esa tanbeh, tahdid, haqorat, kinoya, maqtanchoqlik mazmunidagilar tashkil qiladi.

Soʻzlovchining maqtov aktini bajarishdan maqsadi nutq obyekti haqidagi ijobiy bahosini ifodalashdir. Masalan:

*I like you, are modest and unassuming you have not the arrogance of your countrymen, and I'm sure that you will take my advice [S. Maugham].*

- *Qayg'urma, Oftob, - dedi, kuyaving bunchalik suluv bo'lsa, gap-so'zda tengi bo'lmasa, hali chimildiqda qizingning pechak guldek bo'lib eriga chirmashqanini ko'ramiz.*

- *Oh, opajon, - dedi umidsiz oyim, - manim bunga ko'nglim chopmaydir.*

- *Chopsin, Oftob. [Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar].*

Mazkur misollarda soʻzlovchining nutq adresatiga nisbatan ijobiy munosabati ifodalanmoqda va ushbu koʻrinishda baho akti soʻzlovchining mamnunligi, harakatlanish va maʼqullashi bilan bogʻliq his-tuygʻularini aks ettiradi.

Berilayotgan baho voqelik haqidagi mantiqiy, estetik, axloqiy, ijtimoiy fikrlar negizida hosil boʻladi. Shundan mantiqiy baho soʻz ijtimoiy va tabiiy obyektlar borasida ketganida “haqiqat va yolgʻon” tushunchalari doirasida shakllansa, subyekt oʻz faoliyatini baholayotganida esa “samimiylik yoki nosamimiylik” mezonni old oʻringa chiqadi. Bunday holat koʻpincha soʻzlovchi oʻz-oʻzini baholayotganida koʻzga tashlanadi.

Qiyoslang:

- *Ha-da, ha! Men noyob odamman, otaxon noyob! Ish joyim ham noyob. Mana ish joyim-shahrimizda barcha sharoit muhayyo [Togʻay Murod].*

Fikrimizcha, baholovchi munosabat ifodalanadigan nutqiy aktlar qatoriga yuqorida sanab oʻtilganlardan tashqari, maslahat illokutiv mazmunga ega nutqiy tuzilmalarni ham kiritish zarur. Ayni paytda, illokutiv maqsad vaziyatga bogʻliq holda namoyon boʻladi va ushbu hodisa kommunikativ mazmunini aniqlash (communicative implicature) manbasiga aylanadi.

Maslahat nutqiy akti vositasida ifodalanadigan illokutiv maqsad negizida suhbatdoshni maʼlum bir harakatni bajarishga undash istagi turadi. Uning mazmunida ijodiy baho komponenti mavjud boʻladi. Izohli lugʻatda tavsiflanishicha, maslahat biron ishni qanday qilish yoki umuman nima qilish kerakligi haqida yoʻl-yoʻriq tarzidagi fikr, mulohaza; tavsiya tarzidagi gap; kengash, fikr olishish kabi maʼnolarga ega [OʻTIL, 2-jild 2006: 551]. Ushbu maʼnolarning nutqiy voqelanishida suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomi, adresatning maslahatga ehtiyoji, qiziqishi va berilayotgan maslahatning ijtimoiy-ahloqiy meʼyorlarga mosligi kabi omillar asosiy mezon hisoblanadi.

Bundan tashqari, maslahat nutqiy aktining bajarilishida u yoki bu etnomadaniyatga xos qonun-qoidalar ham oʻz oʻrnini topadi. Zero, maslahat asosan tarbiyaviy-didaktik mazmun ottenkasiga ega oʻgitlardan tashkil topadi. Shu bois, oʻzaro muloqot sharoitida uning ishtirokchilari hech tortinmasdan ming yillar davomida shakllangan, mazmunan sayqallangan falsafiy mushohadalar hosilasi boʻlgan maqollarga murojaat qiladi. Qiyoslang:

*Bolta boʻlsang, ur, kunda boʻlsang, chida;*

*Odob bilan baxt topilar, sabr bilan-taxt;*

*A fool may give a wise man counsel;  
Don't teach your grand mother to suck eggs.*

Ushbu proverbal birliklardan foydalanishda so'zlovchi, birinchidan, jamiyatda qabul qilingan qoidalarga amal qilsa, ikkinchidan, o'z tajribasiga asoslangan holda boshqalarga qanday o'zini tutish borasida maslahat beradi.

Muloqot kontekstida maslahat nutqiy aktining tavsiya, yo'l–yo'riq, pand–nasihat kabi ko'rinishlari, ijobiy xushmuomilalik strategiyalari tatbiqida amalga oshiriladi. Tavsiya mazmuni faollashuvida ko'zlanayotgan maqsad tinglovchiga biron bir muammoni hal qilishga u yoki bu vaziyatni bartaraf etishga yordam berishdan iboratdir. Masalan:

*I should advise you to go to Persia with the Duponts. That is interesting work, if you like [A. Christie];*

*That will be a slow train, I'm afraid sir. Better wait for the express [A. Christie].*

Ingliz tilidagi gaplarning birinchisida Persiyada ishlash ijobiy baholanmoqda va shu baho maslahat berishga asos bo'lmoqda. Ikkinchi misolda esa bir poyezd salbiy baholanib, shu asosda boshqasini kutib turish maslahati yuzaga kelmoqda.

Ushbu holatda so'zlovchi paydo bo'lgan muammoli vaziyatni baholashga asoslangan maslahat–tavsiya berish orqali yechishni taklif qilmoqda.

Maslahat nutqiy aktining yupatish, tinchlantirish, tasalli berish, bosiqlikka undash kabi turlarini hosil qilishda ba'zan buyruq shaklidagi fe'l tuzilmalari va alohida guruhdagi so'zlardan foydalaniladi.

Masalan:

*Lekin sizga havasim keladi, ham achinaman. Havasim keladi, ham achinaman. Havasim kelganiki, zo'r ishlarni sizga ishonib topshirishdi. Eplasangiz tez ko'tarilib ketasiz. Achinishimning sababi shuki, siz g'o'rsiz. Eplay olmasangiz, fisht. Lekin siz tushkunlikka tushmang. Qiynalsangiz, mana biz bor. Tortinmang [Tohir Malik].*

Maqtovga yaqin turadigan va baho mazmunini ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgan nutqiy akt pragmatik kontekstda komissiv atamasini olgan.

Baho kategoriyasi va komissiv nutqiy aktining aloqasi adresatning holati, harakatini ijobiy baholanishida namoyon bo'ladi. Adresatning bo'lajak harakatini ijobiy baholash ikkilamchi xarakterga ega, chunki uning asosida narsa–hodisalarning ijobiy yoki salbiy bahosi turadi. narsa–hodisalarning birlamchi bahosi berilayotgan va'daning asosi, uning motiv–sababini izohlaydi.

Komissiv nutqiy akti vositasida ishontirish va'daning bir turi bo'lib, u bir paytning o'zida suhbatdoshning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsata oladi. Suhbatdosh o'z emotsiyasini har doim ham oshkora ma'lum qilavermasa-da, lekin oldingi nutqiy tuzilmalarning struktur tuzilishi, lug'aviy tarkibi va ohangi buni ko'rsatib turadi. Demak, adresatni va'da bajarilishiga ishontirayotib, so'zlovchi uni qullab–quvvatlayotganini ma'lum qiladi.

Navbatdagi komissiv nutqiy akti qasam orqali amalga oshiriladi. Qasam ichish harakati va'da berish bilan bir xil pragmatik vazifani bajarsa-da, lekin emotiv “yuki” balandligi bilan farq qiladi. Pragmatik kontekstda qasamning

quyidagi turlari farqlanadi: 1) qasam ichib ishontirish; 2) qasam orqali va'da berish; 3) ikki tomonlama qasam ichish.

J.Lich taklif qilgan tasnifga binoan konfliktli nutqiy aktlar qatoriga kiradigan tahdid, ayblov, tahqirlash kabi nutqiy aktlar o'ziga xos xususiyatlarga ega<sup>37</sup>.

Aytish joizki, tahdid mazmunidagi nutqiy harakat bajarilishida vaziyatning keskinligi me'yordagi muloqotga doir cheklovlarni chetga surib qo'yadi. Voqelikka nisbatan salbiy munosabat muloqotning ikkala qatnashchisiga ham taaluqlidir. Ushbu turdagi nutqiy aktlarga umumiy bir xislat xosdir: alohida bir lisoniy birlikning ma'nosi nutqiy tuzilmaning yaxlit semantikasi bilan shartlanadi va bunda salbiy munosabat yetakchi o'ringa chiqadi. Bunday xususiyat qahr, norozilik, ayblov, haqorat illokutiv mazmunlariga bir xilda tegishlidir.

Tahdid nutqiy aktining voqelanishi ma'lum tartibda kechadi. Dastlab so'zlovchi suhbatdoshi oldiga u yoki bu shartlar, talablarni qo'yadi, mazkur talab bajarilmasligini ko'rgandan so'ng u tinglovchiga turli yo'llar bilan tahdid qila boshlaydi. Shu yo'sinda tinglovchi tomonidan shartlarning bajarilmasligi salbiy oqibatlarga olib kelishi haqida ogohlantiriladi. Bunday holatni quyidagi misolda kuzatish mumkin:

*Agar og'aynim bo'lmaganingizda hoziroq o'g'il bolaligimni ko'rsatib qo'yardim. Mayli, oshnachilik hurmati bor. Lekin tilim besuyak deb valdirayverma. Ustozingni menga teng qilaverma. Uningga aytib qo'y: men Hamidovning qo'liga boraman. Ringda ko'rishib qolsak, o'g'il bola qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yarman. O'shanda ustozingga alangali salom aytivoraman [Tohir Malik].*

Ravshanki, muloqot tengdoshlar o'rtasida kechmoqda. So'zlovchining yaxshi tanishi tinglovchiga nisbatan tahdidli munosabati "ko'ziga ko'rsatib qo'yaman" frazeologik birligi yordamida ifodalanmoqda. Mazkur holatda tahdid biroz yumshoqroq mazmun olgan.

Tahdid nutqiy akti ingliz tilida ko'p hollarda savol shaklidagi gap vositasida ifodalanadi. Ma'lumki, so'roq shakli muloqot ishtirokchichisida ma'lum bir axborotning yetishmasligidan darak beradi. Lekin tahdid nutqiy akti ijrosida savol adresat ma'lum qilishni xohlamayotgan axborotni olishga yo'naltiriladi. Masalan:

*- Has Papa been disagreeable?*

*- What, the dickens, has happened to you? [B. Shaw. Pygmalion].*

Ta'na nutqiy akti qanday muloqot kontekstida bajarilmasin, unda har doim salbiy baho voqelanadi va shu jihatdan ushbu nutqiy hodisa tahdidga yaqinlashadi. Ammo ta'nada salbiy baho yaqqol namoyon bo'lsa, tahdidga esa yashirin ko'rinishda, jarima mezonlari orqali ifoda topadi. Bundan tashqari, ta'na nutqiy aktida asosan ahloqiy baho voqelanadi. Harholda emotiv - baho modalligining har qanday ifodalanishida hissiy tuyg'ular va baholi munosabat namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, ingliz millati vakillariga individuallik, shaxs mustaqilligi xosdir va shu sababli ta'na va boshqa salbiy munosabat nutqiy aktlarining ingliz lisoniy madaniyatida voqelanishi qiyin kechadi. Ingliz tilida ta'na asosan bilvosita

<sup>37</sup>Leech G. Principles of Pragmatics. – London. – New York, 1986.

ifodalanadi. Chunki soʻzlovchilarning koʻpchiligi oʻzining norozilik, biron narsadan qanoatmaganligini toʻgʻridan-toʻgʻri izhor qilishdan tortinadi. Masalan:

*- Get the tire! Bring it with you! Ain't you got any sense at all? Why didn't you bring it?* [H. Lee. To Kill A Mockingbird].

Taʼna qilish yetarli darajada xavfli harakat boʻlganligi sababli soʻzlovchi bilvosita ifoda strategiyasiga murojaat qiladi va shu yoʻsinda oʻzini javobgarlik xavfidan saqlab qoladi.

Shaxslararo munosabat simmetrik yoki tenglik va asimmetrik koʻrinishlarda kechishi mumkinligi maʼlum. Shunga nisbatan lisoniy vositalarning qoʻlanishida ham farqlar paydo boʻladi. Muloqot ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabat simmetrik koʻrinishda boʻlganida taʼna nutqiy aktini ifodalovchi vositalar koʻlami asimmetrik munosabatnikiga qaraganda kengroq ekanligi seziladi. Buning sababi suhbatdoshlarning oʻzaro teng munosabatda ekanligi va ular his-tuygʻularini bir-xilda namoyon boʻlishi bilan bogʻliq. Shuning uchun ham lisoniy vositalardan foydalanish imkoniyati unchalik chegaralanmagan.

Baholi nutqiy aktlarning oʻziga xos xususiyatlari adresatga emotsional taʼsir koʻrsatish maqsadi bilan bogʻliq. Ushbu maqsadga yetishish uchun soʻzlovchi nutq vaziyatiga qarab eng qulay vositalardan foydalanishga harakat qiladi. Bunday vaziyatda illokutiv taʼsir, bir tomondan, soʻzlovchining tinglovchini maʼlum harakatga undashi orqali yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan, uning muloqot kechishini oʻz nazoratiga olish istagini yuzaga keltiradi. Shu yoʻsinda suhbatdoshlar oʻzaro munosabatini harakatga undash va emotsional maʼnolar mujassamligida tasavvur qilish qulay koʻrinadi. Bunda emotsional maʼno bevosita undash maqsadi bilan bogʻliq holda shakllanadi va baho emotsiyasini voqelantiruvchi pragmatik amalga aylanadi. Bunday turdagi nutqiy aktlarning mazmun – mundariyasi semantik va pragmatik qatlamlardan tashkil topadi.

Kinoyali nutqiy aktning yuzaga kelishi muloqot ishtirokchilaridan birining ikkinchisining xatti-harakati, fikriga nisbatan istehzoli munosabatda boʻlishi oqibatidir. Bunda soʻzlovchi nazarda tutayotgan mazmun va gap propozitsiyasi oʻrtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Kinoyali nutqiy aktlar soʻz oʻyini uslubining alohida namunasi boʻlib, unda soʻzlovchi va adresat ishtirok etadi. Tinglovchi kinoyani toʻgʻri anglamagan va buni javob replikasi orqali maʼlum qilmagan taqdirda kinoya nutqiy akti samarasiz boʻlib qoladi. Qiyoslang:

*Javlon tirjayib boʻynini qashladi.*

*- Goʻristonda ham sizni shu koʻylakda koʻrgan edim, boshqa koʻylagingiz yoʻqmikan debman.*

*- Goʻristonda koʻrganingizda boshqa koʻylakda edim, - dedi Muhayyo tufllisiga qoʻl uzatib, - men boshingizning shunaqa silliq, pashsha qoʻnsa toyilib tushadi desam, ichi ham shunaqa, hech narsa turmaydiganga oʻxshaydi.*

*Javlon boshdan gapirgan kishini jinidan battar yomon koʻrar edi, qizishib ketdi, dam oʻtmay gʻazabi keldi.*

*- Men sizga nima dedim, nihoyat, koʻylak olib beray debman! Muncha sassiq xotin ekansiz! Eringiz shuning uchun haydab yuborgan ekanda! – dedi va shunga*

*ham qanoat qilmay uni masxara qildi. – Shunaqa deng, boshing kal, senga tegmayman deng? [Abdulla Qahhor].*

Kinoya va boshqa turdagi subyektiv baho nutqiy aktlarining tabiatini to'liq yoritish uchun ular faollashadigan kontekst hamda diskursiv vaziyatlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Faqat shu yo'sinda muloqot ishtirokchilarining nutqiy xatti-harakatlarini kuzatish, ushbu nutqiy aktlarni hosil qiluvchi mexanizmlarni aniqlash hamda ularning shakllanishini ta'minlovchi lisoniy va nolisoniy vositalar majmuasini belgilash mumkin bo'ladi.

## XULOSA

1. Baho inson ongli faoliyati natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Uning doirasida subyektning voqelik obyektiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabati namoyon bo'ladi. Narsa – hodisalar xususiyatining ijobiy yoki salbiy idrok etilishi bahoning ontologik mohiyatini belgilaydi va ushbu qarama – qarshilik olam lisoniy manzarasini shakllantirishda tayanch nuqta vazifasini o'taydi.

2. Baho til tizimiga tegishli hodisa sifatida obyektiv xususiyat maqomiga ega va lisoniy jamoaning barcha vakillari u yoki bu darajada baholash vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Baho diskursiv, nutqiy faoliyat hodisasi sifatida qaralganda esa, uning subyektivligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq diskursiv bahoning subyektivligi ham nisbatan shartlidir. Zotan, lisoniy jamoalarda baho vositalaridan ma'lum turdagi obyektlarni tavsiflash maqsadida foydalanish amaliyotini nazorat qiluvchi ijtimoiy va leksik – grammatik xarakterdagi me'yorlar to'plami mavjud.

3. Baho harakati olam manzarasining ma'lum qismlarini kategoriyalashtirish muhitida sodir bo'ladi. Voqelikka baholi munosabat negizida kechadigan kategoriyalashtirish amaliyoti ma'lum lingvomadaniyat ko'lamida, unga xos qadriyatlar tizimiga muqobil ko'rinishda yuzaga keladi. Bunda olamda sodir bo'ladigan voqea – hodisalar borasidagi umumiy va xususiy xulosalarning ham ta'siri sezilarli darajada bo'ladi. Biroq qadriyatlar tizimi qanday mundarijaga ega bo'lishidan qat'iy nazar, olamning baholi manzarasi lisoniy vositalar faollashuvida shakllanadi. Til kategoriyalarni voqelantiruvchi hamda baho turlarini ajratuvchi, uning darajalaridagi o'zgarishlarni namoyon qiladigan asosiy vositadir.

4. Qadriyatlarga asoslangan baho aksiologik turni tashkil qiladi. Aksiologik bahoning yuzaga kelishida odatda aniq o'lchovga ega bo'lmagan hodisalar (chiroy, axloqiy sifatlar, ezgulik, yolg'izlik kabilar) baho obyektiga aylanadi. Ushbu tushunchalar umuminsoniy qadriyatlar qatoriga kirishi bilan birgalikda, baho subyektiga oid bo'lgan alohida bir ijtimoiy jamoaga yoki guruhga tegishli bo'lishi mumkin. Shunga nisbatan, bahoning universal va lingvomadaniy turlari ajraladi.

5. Voqelikni baholi tavsiflash sezgiga oid, ratsional va emotsional turda bo'lishi mumkin. Ushbu turdagi baho harakatlari milliy tillarda turlicha aks topadi. Tahlillar guvohlik berishicha, ingliz tili tizimida sifat turkumiga tegishli so'zlarning ma'lum guruhi mavjud bo'lib, ular emotsional va ratsional baho kategoriyalariga xos xususiyatlarni namoyon qilishadi. O'zbek tilida esa emotsional bahoni voqelantiruvchi morfologik va leksik vositalar ro'yxati ancha

keng. Bu, o'z navbatida, tillar qiyosida allomorflikdan ko'ra izomorf holatlar ko'proq uchrashidan darak beradi.

6. Komik xarakterga ega diskursda kommunikativ maqsad ko'pincha tagma'noli bo'lib, u qo'llanilayotgan lisoniy vositalarning vaziyat yoki kontekst bilan aloqasida anglashiniladi. Komik samara mo'ljaliidagi nutqiy aktning motivi so'zlovchining voqelikka nisbatan baholi munosabati yoki uning muloqotga shartli, o'yin xususiyatini berish maqsadi bilan bog'liq.

7. Ijobiy yoki salbiy baho mazmunidagi nutqiy aktlar pragmatik, samarasi ularning bajarilishi bilan belgilanmaydi. Bu holat, albatta, milliy mentalitet ta'sirida kechadigan diskursiv faoliyatda o'z aksini topadi. Olib borilgan tahlillar guvohlik berishicha, o'zbek madaniyati vakillari muloqotida ta'na va tahdid nutqiy aktlarining emotsional bo'yoqdorligi ancha baland bo'lgan bir paytda, inglizabon insonlarning tahdid va ta'naga munosabati sezilarli darajada betarafdir.

8. Baholi nutqiy aktlarning kommunikatsiya jarayonida faollashuvi ijtimoiy – psixologik qoidalar nazoratida kechadi. Jumladan, ingliz va o'zbek madaniyatlarida o'zini maqtash harakati har doim ham ijobiy baholanavermaydi. Xuddi shuningdek, o'zbeklar hamsuhbatini haddan ziyod maqtab yuborishni ma'qul ko'rmaydilar. Bunga yo'l qo'yilganida maqtov nutqiy aktining pragmatik mo'ljali samarasiz bo'lib qolishi kutilgan holdir

9. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlarida baho kategoriyasi faollashuvining qiyosiy tahlili natijalari ko'rsatishicha, baho birliklarining muloqot sharoitida voqelanishini ta'minlovchi umumiy qonuniyatlarni belgilash muammolidir. Chunki, ma'lum ko'rinishdagi stereotip kommunikativ vaziyatlar mavjudligiga qaramasdan, bahoning mazmuni alohida turdagi nutqiy aktlarning pragmatik mo'ljali doirasida shakllanadi.

10. Olam lisoniy manzarasida baho kategoriyasi voqelanishining lingvomadaniy va diskursiv – pragmatik xususiyatlarini tavsiflash zamonaviy tilshunoslik fani rivoji uchun muhim bo'lib, kelajakda baho kategoriyasining turli tizimli tillarda ifoda topishini belgilovchi omillarni ilmiy – nazariy jihatdan yoritishga yo'l ochadi. Bu esa chog'ishtirma tilshunoslik yo'nalishining rivoji hamda antropotsentrik tamoyillar qurshovida yangi ko'rinish olishiga zamin yaratadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**СУЛАЙМАНОВА НИЛУФАР ЖАББАРОВНА**

**ДИСКУРСИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
РЕАЛИЗАЦИИ ОЦЕНОЧНОЙ КАТЕГОРИИ В ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ  
МИРА (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО  
ЯЗЫКОВ)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сравнительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации на соискание учёной степени доктора  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)

**Бухара – 2024**

Тема докторской диссертации зарегистрирована под номером №B2023.2.DSc/Fil536 в Высшей аттестационной комиссии.

Докторская диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, английском, русском (резюме)) размещён на веб-странице Научного Совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный консультант:** Сафаров Шахриёр Сафарович  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Ахмедов Ойбек Сапарбаевич  
доктор филологических наук, профессор

Абузалова Мехринисо Кадировна  
доктор филологических наук, профессор

Саъдуллаева Нилуфар Азимовна  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Ташкентский государственный университет  
востоковедения

Защита диссертации состоится « 20 » апреля 2024 г. в 09<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: +99865221-29-14; факс: +99865221-27-07, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрировано за № 426). (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: +99865221-25-87.)

Автореферат диссертации разослан « 05 » апреля 2024 года.

(Протокол рассылки за № 24-02 от « 05 » апреля 2024 года).



**Д.С.Ураева**  
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

**З.И.Расулов**  
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

**Ф.М.Хажиева**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук [DSc])

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике в настоящее время особое внимание уделяется исследованию речевой деятельности человека, речевых действий, речевой культуры в межличностном общении, возможностей описания языковой картины мира. Актуальность проблемы изучения дискурсивно–прагматических особенностей реализации оценочной категории в языковой картине мира на английском и узбекском языках, определения теоретических основ прагматико-дискурсивного исследования оценочной категории, проведения анализа категорий антропоцентрического характера, таких как междисциплинарные отношения оценочного явления, а также выявления онтологической природы этих явлений, и изучения их межъязыковой взаимосвязи, определяет перспективу научных исследований в этом направлении.

В мировом языкознании основное внимание ученых уделяется таким аспектам, как речевое общение носителей различных языковых культур, специфика использования языковых средств, национальное мировоззрение, культурные ценности, аспекты формирования оценки языковой картины мира в речевых структурах, логические основы категории оценки и ее развитие на основе функционально-семантического подхода, проводятся исследования по систематическому исследованию и анализу аспектов, связанных с текстовой модальностью категории оценки. Ввиду того, что анализ дискурсивно-прагматических особенностей реализации оценочной категории в языковой картине мира на материале отдельных языков не может в полной мере отвечать требованиям сегодняшнего дня, а многогранность изучаемых явлений требует интеграции различных отраслей науки, в настоящее время возрастает потребность в изучении феномена оценки продукта речевого мышления с точки зрения методологических принципов различных наук, пребывающих в рамках антропоцентрической парадигмы дискурсивно-прагматического анализа, в свою очередь, служит расширению границ лингвистических исследований.

В результате реализации стратегических планов по укреплению фундамента нового Узбекистана в нашей стране уделяется большое внимание изучению теоретических основ иностранных языков. В силу того, что внимание к изучению иностранных языков стало одним из приоритетов государственной политики, проводится ряд исследований по всестороннему изучению и описанию всех уровней языковой системы и связанных с ними категорий. Особое значение в последние годы приобретают реформы в сфере образования, направленные на “дальнейшее развитие национальной культуры, создание новой истории Нового Узбекистана, сохранение и продвижение шедевров материального и нематериального культурного наследия, обеспечение активной интеграции устного народного творчества в мировое культурное пространство, инновационное развитие сферы культуры и искусства”. В Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики

Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года не только предусматривается “исходя из международного опыта, внедрение передовых стандартов высшего образования, в том числе, поэтапный переход от образования, ориентированного на получение теоретических знаний в учебных программах, к системе образования, ориентированной на формирование практических навыков”<sup>1</sup>, но и на повестку дня выносятся вопросы об обогащении области современного языкознания инновационными принципами и критериями. В частности, существует необходимость углубления исследований, проливающих свет на процесс теоретического и практического овладения иностранными языками, укрепления межэтнических отношений, формирования дискурсивно-прагматического содержания речевых структур в английском и узбекском языках.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных рядом нормативно-правовых актов, таких как Указы Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, УП-5850 от 21 октября 2019 года “О мерах по кардинальному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного”, Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-2909 от 20 апреля 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, ПП-3775 от 5 июня 2018 года “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах”, ПП-5117 от 19 мая 2021 года “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан”, и другими нормативно-правовыми документами, относящимися к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.** Научные исследования по вопросу когнитивно-семантического и прагматико-дискурсивного изучения языковых единиц, образующихся в результате оценочного отражения языковой картины мира в мышлении представителей различных лингвокультур, проводятся в ведущих мировых

---

<sup>1</sup>Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” // Народное слово, 09.10.2019. № 209 (7439)

<sup>2</sup>Сведения представлены на основании материалов веб-сайтов университетов <https://www.ca.ac.uk/>, <https://ua.es/>, <https://www.ugr.es/>, <https://www.ub.edu/web/portal/es/>, <https://www.uniroja.es/>, <https://warwick.ac.uk/>, <https://aku.edu.tr/anasayfa/eng/index.htm>, <https://www.ku.dk/english/>, <https://linguanet.ru/en/>, <https://uzbek.org.uk/usuwl/> <https://www.navoiy-uni.uz/en/site/index>.

научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в Oxford University Language Center (Великобритания); California University (США); Voije Universiteit Amsterdam (Нидерланды); Université de Sorbonne (Франция); Dublin City University (Ирландия); New Bulgarian University (Болгария); Московском государственном университете и Санкт-петербургском государственном университете (Россия); Shanghai International Studies University (Китай), а также в Национальном университете Узбекистана, Узбекском государственном университете мировых языков, Бухарском государственном университете, Университете узбекского языка, литературы и фольклора академии наук Узбекистана, Ферганском государственном университете (Узбекистан).

Исследования, направленные на освещении функционально-семантических особенностей оценочной категории в современной лингвистике, заложили основу для достижения ряда научных результатов (University of California, Groningen University). В настоящее время установлено, что формирование языковой картины мира и включение в нее оценочной деятельности является результатом языковой реализации целостной структуры, движущейся от целого к частному (Lancaster University of Edinburgh, Barcelona University). Результаты исследований регулярно отражаются в публикациях на тематических интернет-сайтах и в электронных журналах, таких как “Text Production. Science of Composition”, “Pragmatics, Discourse”, “Discourse and Process”. С когнитивной и лингвокультурологической точек зрения, оценка является аксиологическим содержанием языковых единиц, которые представляют собой продукт речевого мышления человека, средством отражения действительности через языковую систему (Воронежский государственный университет, Казахский национальный университет, Узбекский государственный университет мировых языков). К настоящему моменту изучены коммуникативно-прагматические свойства аксиологических единиц, проявляющиеся в условиях дискурса, уточнены их семантико-стилистические аспекты (University of Copenhagen, Тамбовский государственный университет, Национальный университет Узбекистана).

В настоящее время внимание уделяется обсуждению таких вопросов, как выявление факторов, обеспечивающих дискурсивную актуализацию оценочной категории, освещение концептуальных процессов, лежащих в их основе, и определение ее места в формировании коммуникативно-прагматического содержания текста.

**Степень изученности проблемы.** Языковая картина мира была предметом многочисленных научных исследований в мировой и узбекской лингвистике. Изучение этого явления способствует освещению условий и закономерностей использования языковых средств в коммуникативной деятельности, а уже в речевых структурах находят свое отражение аспекты формирования оценочной языковой картины мира. В области языкознания был проведен ряд исследований по анализу глубинных особенностей языковой деятельности. Изначально подчеркивалось, что в процессе возникновения номинативных единиц важную роль играет представление

